

## ABDULLA AVLONIY O‘ZBEK MADANIYATI VA ADABIYOTINING ASOSCHILARIDAN BIRI

*Rajabova Mohinur Xusan qizi*

### ANNOTATSIYA

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, hamda turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma’naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab hamda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, maktab, ma’rifat, jadid, axloq, pedagogika.

### ANNOTATION

The views of Abdulla Avlaniy in the field of education are closely connected with the mentality, lifestyle, and national values of the Uzbek people. The rich pedagogical legacy of the writer is the development of educational issues, the formation of moral and spiritual perfection in the hearts of students. It is becoming the need of the hour to study what has served as a national school and a valuable resource.

**Key words:** education, training, school, enlightenment, modernity, morality, pedagogy.

### АННОТАЦИЯ

Взгляды Абдуллы Авланий в области образования тесно связаны с менталитетом, образом жизни, национальными ценностями узбекского народа. Богатое педагогическое наследие писателя – разработка воспитательных вопросов, формирование нравственно-духовного совершенства в сердцах студентов. Это становится потребностью часа изучать то, что служило национальной школой и ценным ресурсом.

**Ключевые слова:** воспитание, обучение, школа, просвещение, всеобщее, нравственность

Ma’rifatning ahamiyati millat, jamiyatning tarbiyasida bemisildir. Uni amalga oshirish, asosan ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u mualliflar zimmasida hisoblanadi. Ana shunday insonlar qatorida hisoblanadigan Abdulla Avloniy o‘zbek madaniyatining asoschilaridan biri va adabiyot, milliy teatr, drammaturgiya, milliy pedagogika va matbuot sohasiga tamal toshini qo‘ygan marifatparvar adib desak yanglishmagan bo‘lamiz. Adibning 7 yoshda O‘qchidagi eski mahallada Akram domlada savod chiqaradi. 1980-yillarda shu mahalladagi madraslardan birida ta’lim olishni davom ettiradi. Shundan so‘ng Shayxontoxurdagi Abdumalikboy madrasasida

mulla Umar Orxunda ta'limni davom ettiradi. Ammo o'sha davrdagi zamonning og'irlashuvi, tirikchilik qiyinlashuvi o'qishga imkon bermaydi. Muallifning yozishicha 1891-yildan boshlab faqat qish kunlari o'qib, boshqa fasllarda mardikorlik qildim, deb ta'kidlaydi. Qiyinchiliklarga qaramasdan adib o'qib ulg'ayib mamlakat, el yurt madaniyati va adabiyotiga katta hissa qo'shdi jumladan adib ilk bor 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochdi. 1907-yil 1-dekabrda o'z hovlisida Shuhrat gazetasini haftasiga 2 marotaba chiqara boshlaydi. Sahifalarida xurofotga qarshi maqolalar chop etilgan. Natilada 10ta soni chiqishga ulgurmasdan gazeta ish faoliyati to'xtatiladi. Shundan so'ng 1908-yilda A.Bektemirov nomiga ruxsat olib Osiyo gazetasini chiqara boshlaydi. Shuhrat gazetasining davomi sifatida maorif sohasidagi islohotlar, dunyoviy ilmlarni o'rganish zarurligi, ma'naviy va iqtisodiy masalalarni muammolar to'g'risidagi yozilgan maqolalar va she'rlarga keng e'tibor qaratilgan edi. Ammo bu gazetaning ham umri qisqa bo'lib 5 ta soni bosib chiqarilgach mustamlaka ma'murlari tomonidan yopilgan. Bu gazetalar o'zbek milliy matbuotining dastlabki namunalari bo'lishi bilan ham ahamiyatli edi. Avloniyning gazetachilik harakati bu bilan to'xtab qolmadi. U Tarjimaiy holim da Sadoyi Turkiston gazetasiga yozuvchilik, muharrirlik qildim, desa buning davomida 1917-yilda Turon va Turk eli gazetalarini bosganligini ham ma'lumot beradi. Avloniyning yana bir muhim bit milliy xizmati uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq. Millatning bir mustabid davlat istibdodi iskanjasida yashashi milliy turmushni izdan chiqarigan edi. Buning bir tomoni milliy jaholat bilan bog'liq bo'lsa ikkinchi tomoni mustabid davrning razil siyosati bilan bog'liq edi. Avloniy va boshqa jadid namoyandalari jaholat chohiga qulayotgan avlodni tarbiyalash va ularni ulkan falokatdan saqlab qolish edi. Adibning Birinchi muallim, Ikkinchi muallim Turkiy Turkiston yohud axloq asarlari aynan shu maqsadda yozilgan edi. Adabiyot yohud milliy she'rlar nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juzini nashr qildiradi. Milliy she'r atamasi Avloniy, Hamza kabi shorlarimizdan keyin qo'llanila boshladi. Bu bitiklar avvalo millat dardini o'zida tarannum etgani uchun ham shunday nomga loyiqdir. Bu she'riy to'plam milliy ohangda yozilgani bilan adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga ega. Avloniy faoliyatining barcha qirralarini- she'riyatini, dramaturgiyasini, pedagogik asarlarini, publitsistikasini, hatto safarnomasini ham ma'rifatparvarlik ruhi bilan to'yintirilgandir. U sovet davrida turli ma'sulyatli lavozimlarda ishlaydi. Qaysi sohada ishlamasin ilmiy ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi. Abdulla Avloniy ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi deb hisoblagani ham bejiz emas. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki Abdulla Avloniy o'zbek adabiyoti va madaniyatiga katta xissa qo'shgan insonlardan biridir. Abdulla Avloniyning yozgan she'rlarini o'qir ekanmiz millat dardi, va yoshlar ongi va mamlakat rivoji uchun ko'plab she'rlar yozib qoldirganini ko'rishimiz mumkin. Abdulla Avloniyning ijodiy me'rosi ma'naviy-

ma'rifiy tarbiya uchun g'oyatda juda katta targ'ibot hisoblanadi. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya nazariyalari g'oyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

M. Xodjayev "Pedagogika" 1-Jild.

B.Qosimov O.Oltinbek "Jadid adabiyoti namoyandalari", "Abdulla Avloniy".  
Toshkent-2022.

R.A.Mavlanova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov,  
S.Hafizov "Umumiy pedagogika" Toshkent-2018.